

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Shernazarov, X.Jamolova</b>	
"BOBURNOMA"ning forscha misralari .....	91
<b>S.Halimov</b>	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi .....	95
<hr/>	
TILSHUNOSLIK	
<b>Z.Akbarova, M.Buvajonova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
<b>G.Davlyatova</b>	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
<b>B.To'rayeva</b>	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....	107
<b>Z.Alimova, S.Gafurova</b>	
"SADOI TURKISTON" gazetasi va undagi bir maqola xususida .....	114
<b>G.Raximova</b>	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar .....	120
<b>J.Ibragimov</b>	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi .....	123
<b>N.Xasanboyeva</b>	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari .....	127
<b>D.Ganiyeva, D.Ismoilova</b>	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari .....	130
<b>M.Qurbanova</b>	
O'zbek tilshunosligida okkazional birliklar tadqiqi .....	134
<b>L.Masharipova</b>	
Til va madaniyat .....	139
<b>Sh.Jumaqulova</b>	
O'zbek tilida "xursandchilik" etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi .....	144
<b>X.Maripova</b>	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari .....	147
<b>A.Mattiiev</b>	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar .....	151
<b>A.Yuldashev</b>	
So'z ma'nosi xususida .....	154
<b>D.Gaziyeva</b>	
Funksional va stilistik jihatdan media tili .....	159
<b>U.Yokubbayeva</b>	
"Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida qo'llangan "yashil" leksemasining semantik takomili .....	164
<b>N.Umarova, M.Abduolimova</b>	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari .....	170
<hr/>	
MATEMATIKA	
<b>A.Xasanov, I.Jalilov</b>	
$F_{0;3;3}^{2;2;2}[x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyani qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi .....	173
<b>D.Usmonov, A.Urinov</b>	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar .....	185

---

FIZIKA – TEXNIKA

<b>M.Maxmudova, Sh.Shuxratov</b>	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi .....	193

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI UCHUN ELEKTRON O'QUV LUG'ATLARINI  
YARATISHNING ZARURATI XUSUSIDA**

**О НЕОБХОДИМОСТИ СОЗДАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНЫХ СЛОВАРЕЙ ДЛЯ  
УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**ABOUT THE NEED OF CREATING ELECTRONIC EDUCATIONAL DICTIONARIES FOR  
PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

**Akbarova Zuxro Akmaljonovna<sup>1</sup>, Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi<sup>2</sup>**

**<sup>1</sup>Akbarova Zuxro Akmaljonovna**

–Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori

**<sup>2</sup>Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi**

–Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lif  
uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada o'quv lug'atlari to'g'risida, ular o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga, so'z boyligini oshirishga, tafakkurini o'stirishga, tilning mavjud adabiy me'yorlarini o'zlashtirishga, tildan amaliy foydalananish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi to'g'risida, o'quv lug'atlarining yaratilishi boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'jalangan yangi avlod lug'atlarini tuzish uchun olib borilayotgan tadqiqotlarning o'zaro bog'lanishiga yordam berishi va ulardan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish zaruriyat mavjud ekanligi haqida so'z yuritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье описываются учебные словари, их роль в развитии интеллектуального потенциала учащихся, увеличении словарного запаса, развитии мышления, овладении существующими литературными нормами языка, развитии компетенций практического использования языка, также обсуждается создание учебных словарей, способствующих взаимосвязанности проводимых исследований по составлению словарей нового поколения и предназначенных для учащихся начальных классов.*

**Abstract**

*This article describes educational dictionaries, their role in the development of the intellectual potential of students, increasing vocabulary, developing thinking, mastering the existing literary norms of the language, developing competencies for the practical use of the language, and also discusses the creation of educational dictionaries that contribute to the interconnectedness of research on the compilation of dictionaries of a new generation and intended for primary school students.*

**Kalit so'zlar:** o'quv lug'ati, leksikografiya, innovatsion ta'lif, elektron-o'quv lug'atlari, konsepsiysi, semantizatsiya, kompetentlik.

**Ключевые слова:** словарь, лексикография, инновационное образование, электронные словари, понятия, семантика, компетентность.

**Key words:** dictionary, lexicography, innovative education, e-learning dictionaries, concept, semantization, competence.

**KIRISH**

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat taraqqiyotidagi har bir davr til ta'limi va tilshunoslik zimmasiga muayyan ijtimoiy vazifalarni yuklaydi. Har bir tilning lug'at zahirasi taraqqiyoti yangi lug'aviy birlıklarning kirib kelishi, so'zlarning yangi ma'no kasb etishi, shu asosda ma'nodoshlikning yangi munosabatlari paydo bo'lishi yoki o'zaro ziddiyatdagi so'zlarning yangi tushunchalar hisobiga boyishi, so'z ma'nolarining kengayishi kabi lingvistik hodisalar bilan xarakterlanadi.

So'nggi yillarda o'zbek leksikografiysi ham jahon lug'atchiligining barcha yutuqlarini o'zlashtirib bormoqda. Dunyoning qator rivojlangan mamlakatlarida o'tgan asrnning boshlaridayoq til o'qitish va o'rgatishning samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida tan olingan va hukumat tomonidan diqqat markazda turgan o'quv lug'atchiligining educational lexicography (ta'limi leksikografiya), school dictionary (mabitab lug'ati), children's dictionary (bolalar lug'ati), learning dictionary (o'quv lug'ati), educational dictionary (ta'limi lug'at), kindergarden dictionary (bog'cha lug'ati), dictionary for kids (kichik bolalar uchun lug'at), Kindle edition (elektron nashrlar) kabi xalqaro ilmiy terminlari va janrlari bilan foydalauvchilarga yaqindan tanish bo'lgan elektron-

## TILSHUNOSLIK

o'quv lug'atichiligi sohasining bugungi istiqboli ma'lum ma'noda o'zbek leksikografiyasining ham diqqat markazida turibdi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xususan, 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida milliy tilning o'quv leksikografiya tarmog'ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o'quv lug'atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo'yicha atamalar lug'atini yaratish orqali sohalar bo'yicha milliy terminologik tizimni va boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek tilini o'rgatishni takomillashtirish kabi qat'iy vazifalar qo'yildi. Umuman, so'nggi yillarda o'zbek tilida o'quv lug'atlarini yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlar juda ko'p bo'lsa-da, ta'llim kompleksi tarkibiga kiruvchi o'quv jarayoni uchun maksimal moslashgan foydalanuvchilarning yoshi chegaralangan o'quv lug'atlari tizimining shakllanmagani, mavjud lug'atlardagi qator kamchiliklarning borligi yaratilayotgan elektron o'quv lug'atlarining mavjud emasligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun elektron o'quv lug'atlar bugunga qadar o'zbek leksikografiyasida yaratilmagan. O'zbek lug'atichilida bu turdag'i elektron-o'quv lug'atlar tuzishning alohida tamoyillari ishlab chiqilmagan. Bu borada esa tajribalar yetarli emas. Shunday bo'lsada, boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun leksik-semantic sistemalar tipidagi mazkur o'quv lug'atlari yaratilishi o'quv leksikografiyasining takomillashuvida muhim rol o'ynayadi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari hamda kommunikativ kompetentlikni hosil qilishning asosiy omillaridan biri o'quvchilarda ta'llim jarayonida va darsdan tashqari mustaqil ta'llim olish jarayonida o'quv lug'atlaridan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish zaruriyati mavjud.

Shuningdek, zamonaviy shaxsning muhim ko'rsatkichi hisoblangan kommunikativ kompetentlikni o'stiruvchi mazkur antropotsentrik lug'atlar, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun zamonaviy sinonimlar, antonimlar va ko'p ma'noli so'zlarning elektron lug'ati mavjud emas. Mavjud lug'atlarning aksariyati o'zbek lug'atichilida an'anaviy lug'atlar bo'lib, ular yosh jihatidan chegaralanmagan. Bu tipdagi lug'atlar aynan boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun deb ko'rsatilib, foydalanuvchilar aniq chegaralanmagan va so'zlik qamrovi o'quv jarayoni ehtiyojidan kelib chiqmagan.

Bugun zamonaviy talablarga mos boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun sinonimlar, antonimlar, ko'p ma'noli so'zlarning (qo'shimcha illyustratsiyalar, savol, tizimli grammatik topshiriqlar, she'riy parchalar va lug'at bilan ishlash mashqlaridan iborat bo'lgan) elektron lug'atini ishlab chiqish zamonaviy tilshunoslik va pedagogikaning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Maktab lug'atlari (school dictionary) – foydalanish oson va oddiy bo'lgan muayyan so'zlik bilan chegaralangan lug'at hisoblanadi. Odatta mazkur lug'atning kontenti 70-80 ming so'zdan oshmaydi. Boshlang'ich sinflar uchun 2500-3000 atrofida so'z bo'ladi

Ushbu o'quv lug'atlari to'g'ridan-to'g'ri antropotsentrik lug'atlar bo'lib, ular o'quvchilarning intellektual salohiyatini ona tili orqali rivojlantirishga, so'z boyligini oshirishga, tafakkurini o'stirishga, tilning mavjud adabiy me'yorlarini o'zlashtirishga, tildan amaliy foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Elektron o'quv lug'atlari bilan birga yaratilishi zarur bo'lgan platformalar asosida yaratiladigan o'quv elektron interfaol lug'atga aylanadi.

Dastur muntazam ravishda qo'shimcha tarzda yangi so'zlarni qo'shib borish imkonini beradi. Dastur yordamida notanish so'zlarni ko'rgazmali shaklda tushuntirish asosida o'quvchi tafakkurini rivojlantirishda didaktik va pedagogik-psixologik elementlar joriy qilinishi mumkin.

Lug'at so'zligini topish uchun harf va so'zlarning differensial qidirushi va tanlab olinish imkonini ham mavjud bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun elektron o'quv lug'atlari yaratilgandan so'ng keyinchalik lug'atdan onlayn foydalanuvchilarning fikrlarini to'plash hamda ular tomonidan lug'atda berilgan lingvodidaktik topshiriqlarning bajarishini nazorat qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Elektron o'quv lug'atlari uchun yaratilgan dasturni statsionar shaxsiy kompyuter, noutbook, planshetlarga yuklab, o'rnatilsa, undan foydalanish jarayonida foydalanuvchilar talablariga ko'ra, maxsus ekranlarda ko'rsatib guruhlarda yoki individual kompyuterning display ekranini yordamida tashkil etish mumkin.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Elektron-o'quv lug'atlari bir necha jihat bilan zamonaviy boshqa lug'atlardan farq qiladi: elementar – joy egallamasligi, transportirovkaning qulayligi (virtualligi), yirtilmaydi, eskirmaydi, ma'lumot topish tezkorligi kabilardan tashqari, texnik xarakteristikasiga ko'ra ham ustunlik qiladi: elektron o'quv lug'atlarda nafaqat matn va grafik illyustratsiyalar, balki audio, video, animatsiya...kabilar ham ishtirok eta oladi. Bu esa izohlar mazmunini boyitadi, obyekt tavsifini yanada tushunarli qiladi. "Boshlang'ich sinflar uchun sinonim, antonim, omonim, ko'p ma'noli so'zlarning elektron o'quv lug'ati"ni yaratish orqali o'zbek leksikografiyasida ta'lism kompleksi tarkibiga kiruvchi o'quv jarayoni uchun maksimal moslashgan foydalanuvchilarning yoshi chegaralangan o'quv lug'atlari tizimi shakllantiriladi.

Maktab lug'atlari katta hajmdagi lug'atlarni qisqartirish usuli bilan yaratilmaydi. Mustaqil ta'lism uchun o'quv jarayonida qo'llanuvchi o'quv adabiyotlarda mavjud so'zlar asosida tuziladi. Zamonaviy talablarga mos boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun sinonimlar, antonimlar, omonim va ko'p ma'noli so'zlarning (qo'shimcha illyustratsiyalar, savol, tizimli grammatik topshiriqlar, she'riy parchalar va lug'at bilan ishslash mashqlaridan iborat bo'lgan) elektron lug'atlar ta'lism oluvchining faqat muayyan fan bo'yicha bilimlarini mustahkamlash uchun emas, balki uning shaxs sifatida kamol topishi, nutqi, dunyoqarashini ham shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi; o'quvchining yoshi, ruhiy-psixologik holati, fiziologik rivojlanishi, millati, e'tiqodi, madaniyati, milliy qadriyatli, urchodatlari, o'zi yashayotgan mamlakat tabiatini, iqlimi, hayvonot olami, umuman, uni qurshab turgan olam bilan chambarchas bog'lanadi; ta'lism oluvchining ongida ilk yoshidan boshlab olamning lisoniy manzarasini chizishga yordam beradi.

Innovatsion ta'lism sharoitida milliy madaniyat fenomenining asosiy belgisi bo'lgan tilning nufuz va obro'yini oshirish maqsadida ta'limga turli bo'g'irlari uchun mo'ljallangan yangi avlod o'quv lug'atlari hamda ularning gadjetlarda ishslashga mo'ljallangan mobil ilovalarini yaratishdek amaliy ishlanmalarning roli muhim. Ayniqsa, o'quv lug'atlarining yaratilishi boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan yangi avlod lug'atlarini tuzish uchun olib borilayotgan tadqiqotlarning o'zaro bog'lanishiga yordam beradi. O'zbek tilida yaratilayotgan yangi avlod o'quv lug'atlarining mazmuni (kontent) va savyasini oshirish, korpusini takomillashtirish, lug'at so'zligini tanlash va semantizatsiyasida zamonaviy leksikografik tamoyillar jahon o'quv lug'atchiligi tajribalarini uyg'unlashtirishda qo'l keladi.

## XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'quv lug'atlarida bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, har bir so'z uchun alohida berilgan qiziqarli topshiriq ilovalari orqali bola o'zining sevimli qahramonlarini uchratadi va natijada asosiy maqsad bo'lib hisoblangan so'z haqidagi ma'lumotni puxta o'zlashtiradi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksikografik kompetentlik turli elektron o'quv lug'atlardan foydalangan holda shakllantirilsa, ularda vaqt va makondan qat'iy nazar bu tipdagи lug'atlardan foydalangan imkoniyati bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонова Н, Абдувахобов Г. Ўқув луғатини тузишнинг назарий методологик асослари\| “Сўз санъати халқаро журнали”, 2021, 6-сон, 106-бет
2. Абдурахмонова Н, Абдувахобов Г. Ўқув луғатини тузишнинг назарий методологик асослари\| “Сўз санъати халқаро журнали”, 2021, 6-сон, 106-бет
3. Bahiddinova B. O'quv lug'ati qanday lug'ati? \| Til va adabiyot ta'limi, 2020.2-son, 7-bet